

O‘RXUN-ENASOY YOZMA YODGORLIKLARIDA QO‘LLANILGAN  
ANTROPONIMLAR

Rustamov Mirjalol Azamat o‘g‘li  
Samarqand davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida qo‘llanilgan antroponimlar, leksik tarkibi o‘sha davrda yashagan turkiy qabilalarning hayoti, turmush tarzi, urf- odatlari to‘g‘risida tasavvurlar, qadimgi turkiy til leksikasini asosan umumturkiy so‘zlar tashkil qilishligi.

**Kalit so‘zlar:** O‘rxun-Enasoy, Leksika, qavmi, urug‘-toifasi, To‘nyuquq, tarxonlar.

**Аннотация:** В данной статье антропонимы, используемые в письменных памятниках Орхун-Энасой, лексический состав представляют собой представления о быте, образе жизни, обычаях тюркских племен, живших в тот период, в основном составлена лексика древнетюркского языка составление общетюркских слов делать

**Ключевые слова:** Орхун-Энасой, лексикон, народ, племя, тоньюкук, тарханы.

**Annotation:** In this article, the anthroponyms used in the written monuments of Orhun-Enasoy, the lexical composition are ideas about the life, lifestyle, and customs of the Turkic tribes who lived in that period, the lexicon of the ancient Turkic language is mainly made up of common Turkic words. to do

**Key words:** Orhun-Enasoy, Lexicon, people, tribe, Tonyuquq, tarkhans.

### KIRISH

Leksikologiyada tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar, ya‘ni o‘sha tilning lug‘at boyligi haqida so‘z yuritiladi. Shuni ham qayd qilish kerakki, qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarni biror urug‘ yoki qabilaga mansub deb bo‘lmaydi. Chunki qadimgi turkiy til leksik qatlamida mavjud bo‘lgan so‘zlar o‘sha davrda yashagan urug‘ va qabilalarning barchasiga tegishli bo‘lgan deb qarash zarur. Qadimgi turkiy til leksikasi mazkur tilning qaysi dialektlar asosida shakllanganini ko‘rsatishi bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tarixi ham ilk bor leksikada aks etadi. Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami o‘ziga xos. Bu tilning leksikasidagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, qadimgi turkiy qabilalarning tillaridagi leksik qatlam, tilning boshqa sathlariga qaraganda, qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishida katta vazifa bajargan. Leksika atamasi grekcha lexicos («so‘zga oid») so‘zi hosilasidir. Leksika deganda, tilning barcha so‘zlari, lug‘at tarkibi nazarda tutiladi. Leksika atamasi tilning alohida so‘zlar qatlamiga ham (maishiy leksika, poetik leksika, ish yuritish kabi), bir ijodkor tomonidan qo‘llangan barcha so‘zlarga nisbatan ham yoki biror asar haqida ham qo‘llanilishi mumkin. Til leksikasi tilshunoslikning leksikologiya, semasiologiya va onomasiologiya sohalari o‘rganish manbai hisoblanadi. Leksika bevosita yoki bilvosita borliqni ifodalaydi, jamiyatdagi o‘zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma‘naviy olamini aks ettiradi, yangi predmet, hodisa, jarayon tushunchalarni ifodalash uchun yangi so‘zlar bilan muttasil to‘lib boradi.



### ADABIYOTLAR VA METADALOGIYA

Qadimgi yozma manbalar tilini ko'zdan kechirishda, uning leksik tarkibi o'sha davrda yashagan turkiy qabilalarning hayoti, turmush tarzi, urf- odatlari to'g'risida tasavvur uyg'onadi. Birgina misolni olaylik: lashkarboshilar qabriga, murdaning yoniga kichkina tosh haykalchalar qo'yilgan. Ular jangda o'ldirgan dushmanlari sonini anglatadi. Ana shu haykalchalar balbal deb aytilgan. Ilmiy manbalarda yozilishicha, odam qiyofasidagi «balbal» deb nomlanuvchi bu toshlar qadim turk xoqonliklari davridan meros. Bu kabi tarixiy tosh haykallar turkiyzabon xalqlar yashagan makonlarda – Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Mo'g'ulistonning ko'plab joylarida uchraydi. Balbal ma'lum bir hududda mashhur bo'lgan odamning hurmatiga bunyod etilgan. Ular asosan elini, yerini dushmanlardan himoya qilgan botirlar hurmatiga o'rnatilgan. Balbal – qadimiy turkiy so'z bo'lib, «bal-bal», ya'ni «zarba bermoq», «qoqmoq», «urmoq» kabi ma'nolarni anglatadi. Turkiyshunos olimlar fikricha, balbal – «toshni tik qilib o'rnatgan belgilar» degan ma'noga ega. Balbalning etnomadaniy ma'nosi qadimgi turkiy davrda, ya'ni VI-IX asrlarda alohida mazmun kasb etgan. U paytlarda qadimgi turkiy urf-odat va an'analarga ko'ra, balballarning aksariyati xoqon, tegin, torxon, chor, tudun, biy, bek kabi elboshchilar, botirlar, oqsuyak odamlarning hurmatiga maxsus yasalgan. Ular orqali motam tutilgan, marhumning ruhi hurmatiga «yo'qlash» kabi udumlar bajarilgan. Marhumning ruhini shod qilish marosimida qatnashganlar o'zlari yashayotgan makonidan balbal toshlarni olib kelgan va an'anaga muvofiq, marhumning dafn etilgan joyida oraliq masofasini birdek qilib, qatorlashtirib o'rnatgan. Ushbu esdalik majmuasini yaratishga ishtirok etganlar o'zlarining qavmi, urug'-toifasi tamg'alarini yoki qadimgi turkiy bitik yozuvi bilan ismlarini, lavozim, unvonlarini yozgan. Bu qadimgi turkiy qavmlarning o'ziga xos yo'qlash marosimidan darak beradi. Markaziy Osiyoda islom dinining keng tarqalishi bilan toshlardan esdalik yasash o'z ma'nosini yo'qota boshlagan.

### NATIJALAR

Tarixiy-etimologik jihatdan qaraganda, qadimgi turkiy til leksikasini asosan umumturkiy so'zlar tashkil qiladi. Ularning ko'pi hozir ham turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida qo'llanadi. Buni misollardan ham ko'rish mumkin. «Kultegin» bitiktoshining uchta satri (1-3) ni tahlil qilganda, unda jami 58 ta so'z qo'llangan bo'lib, shundan 42 tasi hozirgi o'zbek tilida aynan yoki ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanadi, 17 ta so'z esa hozirgi tilimizda qo'llanmaydi. Təngri-təg, təngrida bolmış turuk bilgə qag'an bu ödka olurtum, sabымым tukəti əshidgil: ulayu ini yigunum, og'lanым, biriki og'ushum bodunum, birya shadapıt bəglar, yiryə tarqat buyruq bəglar, otuz... ya'ni tangridan bo'lmish turk bilga xoqon bu dunyoga keldim. So'zimni tugal yeshitgil keynimdagi ini, jiyanim, o'g'illarim, ittifoq, urug'im, xalqim, o'ngdagi shadapıt beklar, chapdagi tarxonlar, buyruq beklar, o'tuz... [To'nyuquq, 1].

Toquz og'uz bəgləri bodunы bu sabымым ədguti əshid qatyg'dы тыngla ilgəru kun tog'sыqqa, birgaru kun ortusыngaru, qurыg'aru kun batsiqinga, yirg'aru tun ortusыngaru, anta ichrəki bodun qop manga köru, ancha bodun... to'qqiz o'g'uz beklari, xalqi bu so'zlarimni yaxshilab yeshit, diqqat qilib tingla! Oldinga-kunchiqarga, o'ngga-janubga, orqaga-



kunbotarga, chapga- shimolgacha bo‘lgan yer ichidagi xalqlar hammasi menga qaraydi. shu xalqni... [To‘nyuquq, 2].

...qop etdim. Ol amty anyuyg‘yoq Turuk qag‘an O‘tukən yish olursar, əltə bung yoq, ilgəru Shantung yazыqə təgi sulədim, taluyqə kichig təgmədim, birgəru Toquz ərsənka təgi sulədim, Tuputkə kichik təgmədim, qurug‘aru Yinchu o‘guz.. mamnun qildim. U yendi yovuz yemas Turk xoqoni O‘tukan yishda tursa, yelda tashvish yo‘q. Shimolga Shantung cho‘ligacha lashkar tortdim, dengizga bir oz yetmadim. Janubga to‘quz arsangacha lashkar tortdim, Tuputga bir oz yetmadim. G‘arbiga Inju o‘g‘uz Sirdaryoni...[To‘nyuquq, 2].

Hozirgi tilimizda iste‘molda mavjud so‘zlar	Hozirgi tilimizda iste‘molda saqlanib qolmagan so‘zlar	
Tangri	O‘d	Dunyo
Turk	sab	so‘z
qag‘an	yigun	jiyan
Tukat	biriki	ittifoq
ashid	yirya	chap
Og‘lan	Bodun	Urug‘-xalq
bek	Qatig‘di	Diqqat qil

Ma‘lumki, antroponim (yunoncha: antropos-onoma-atoqli ot) - kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar.) Ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi antroponimiya deb yuritiladi. Yodgorliklarda quyidagi kishi nomlari mavjud.

To‘nyuquq. Bilgə Tonyuquq bən özüm Tabg‘ach əlingə qılyımtım. O‘zim Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim [To‘nyuquq,1]. jumlası bilan asosiy qismga ko‘chiladi. U turk xoqonligiga asos solgan. Ismning birinchi qismi, hozirda bir qator turkiy so‘zlarda saqlanib qolgan, qadimgi turkiy tilga xos «tun» –«ilk, ulug‘», «bosh, katta» so‘zi bilan aloqador bo‘lib, o‘zbek tilidagi xuddi shu ma‘nolarda qo‘llaniluvchi to‘ng‘ich so‘zining negizi ham tun so‘ziga borib taqaladi. Qadimgi turkiy davlatchilik an‘analariga ko‘ra, har bir amaldor, xoh u xoqon bo‘lsin, xoh quyi darajali lavozim egasi bo‘lsin, ularning ismi oldiga bahodir, alp, bilga kabi epitetlarga o‘xshab tun so‘zi ham qo‘shib aytilgan va shu asosda bir xil unvonga ega amaldorlar darajasiga ko‘ra farqlangan. Jumladan, «bən özüm bilga Tonyuquq O‘tukan yerig qonmish, ya‘ni men o‘zim bilga To‘nyuquq O‘tukan yeriga qo‘nibdi» mazkur o‘rinda bilga ya‘ni «aqli, dono, bilimli» ma‘nolarini ifodalagan laqab, taxallus ko‘rinishidagi so‘z qo‘llanilgan. Kezi kelganda aytib o‘tish kerak, tun so‘zi hozirgi tilimizdagi «kecha, kechqurun» ma‘nosidagi tun so‘zidan farqli bo‘lib, undagi u unlisi qattiq talaffuz etilgan.

Tilshunoslikda «ilk, to‘ng‘ich» ma‘nosidagi tun so‘zi to‘n tariqasida, «kecha» ma‘nosidagi tun so‘zi esa tu:n shaklida transkripsiya qilinadi. Bu birinchi so‘zning yumshoq, ikkinchi so‘zning esa qattiq talaffuz qilinishi bilan bog‘liq. To‘nyuquq so‘zining lug‘aviy ma‘nosi haqida turlicha fikrlar bor. R.Jiro bu ism toni yuquq (kiyimi yuqlik) degan so‘zdan olingan deydi. V.M.Nadelyayev o‘zining shu masalaga bag‘ishlangan maqolasida bu nom tuyuq-o‘q (tuyuq



o‘q) so‘zlaridan iborat deb ko‘rsatadi. Turk olimi Ali Ulvi Elove «Turk dili arashtirmalari yilligi» (Ankara,1958) da nashr qilingan «Bir yazi maselesi uzirine» nomli maqolasida mazkur ot to‘n (birlamchi, to‘ngich), yoq-(yuksal) va uq (ot yasovchi qo‘shimcha) dan iborat deydi. Leningradlik olim S.G.Klyashtorniy bu fikrga ikkinchi element oq saqlamoq, qadrlamoq ma‘nosidagi fe‘lning o‘zagi deb tuzatish kiritadi va To‘nyuquqning asl lug‘aviy ma‘nosi «to‘ng‘ich javhar» degan xulosaga keladi. Shundan aniqlashadiki, keyingi ikki olimning fikrlari bizning fikrimizni dalillaydi.

Iltaris-Eltarish -Turk xoqonligi hukmdori (680-691). Bumin xoqonning avlodi. Dastlab tudun unvoni bilan Xitoyning shimolidagi turkiy qabilalarga rahbarlik qilgan Asl ismi Qutlug‘ bo‘lib, keyinchalik Eltarish-davlatni, xalqni birlashtiruvchi degan nom olgan. U bir muddat xitoyning Tan sulolasiga (618-907) qaram bo‘lib qolgan turk xoqonligining 681 yilda qaytadan mustaqil davlat bo‘lishiga muhim hissa qo‘shgan. O‘rxun bitiktoshlari va Xitoy yilnomalarida Tabg‘ach (Xitoy)ga qarshi Eltarish boshchiligida istiqloq uchun olib borilgan harakatlar batafsil bayon qilingan. Jumladan, bitiktoshlarda Eltarish xoqon ayoli Elbilga xotun bilan birgalikda davlatni qaytadan barpo etgani ta‘kidlanadi. Xitoy yilnomalarida Gudulu (Qutlug‘) shaklida qayd qilingan Eltarish xoqon Tan imperiyasiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan turkiy qabilalarga boshchilik qiladi va dastlab Xitoyning shimolidagi Chuqayquzi va Qoraqum (Xuanxe daryosining shimoli) mavze‘larida qarorgoh qurib, faoliyat yurita boshlaydi. Eltarish 687 yilda yirik qabila o‘g‘uzlarni yengib, O‘tukan (Mo‘g‘ulistonning shimoliy-g‘arbiy qismidagi Xangay tog‘larida joylashgan o‘rmonli vodiya) ni xoqonlik markaziga aylantiradi. Uning davrida Turk xoqonligi o‘zining ilgarigi qudratiga erishib, Oltoy, Janubiy Sibir va Mo‘g‘ulistonda istiqomat qiluvchi turkiy qabilalar bitta davlatga birlashtiriladi. Bu davrda Turk xoqonligining hududi shimolda Sayan tog‘laridagi vodiylarni, sharqda Kerulen va O‘non daryolari havzalarini, janubda Xitoyning shimoliy viloyatlarini o‘z ichiga olgan yirik davlatga aylanadi.

## XULOSA

Bilga qagan (asl ismi Mog‘ilyon). Təngri-təg təngrı yaratmısh Turuk Bilga qag‘an sabym: qang‘ym turuk bilgə..., Tangriday tangrı yaratmısh turk Bilga xoqon nutqim: Otam turk dono...[Bilga xoqon,1]. (684-734) -Turk xoqonligi xoqoni (716-734). Ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonining o‘g‘li, Kulteginning akasi. 693 yil Eltarish xoqon vafot etgach, turkiy xalqlarning udumiga ko‘ra taxtga ukasi Mo‘chur, ya‘ni Qapag‘an qag‘an o‘tiradi. U jiyani Mog‘ilyonni xoqonlikning g‘arbiy hududlarida yashovchi tardushlar hukmdori-shadi etib tayinlaydi hamda uning zimmasiga muhim harbiy masalalarni hal etish vazifasini yuklaydi. 701 yili Mog‘ilyon 16 yoshli inisi Kultegin bilan birgalikda Chuy vodiysiga yurish qiladi va u bostiriladi (705 yil). Dono To‘nyuquqning qiziga uylangan Mog‘ilyon 704 yil G‘arbiy xoqonlik qo‘shinlari bilan Enasoy daryosining yuqori oqimidagi chik hamda az qabilalarini mag‘lub etadi. Ma‘lum fursatdan so‘ng u hozirgi Tuva yerlarini ham qo‘lga kiritadi. 716 yili Qapag‘an qag‘an bayirqu qabilasi vakillari tomonidan o‘ldirilgach, Mog‘ilyon ukasi Kulteginning sa‘y-harakatlari tufayli xoqonlik taxtiga o‘tiradi va Bilga xoqon laqabini oladi. Bilga xoqon Kulteginni bosh qo‘mondon, To‘nyuquqni esa bosh maslahatchi etib tayinlaydi.



Bilga xoqon Qapag'an xoqon davrida ma'lum darajada yo'qotilgan imkoniyatlarni qayta tiklashga, turkiy qabilalar o'rtasidagi o'zaro janjal va nizolarga chek qo'yishga, ularni yagona davlat tevaragida birlashtirishga, tashqi hujumlarni daf etishga qodir harbiy kuchlarni, qisqa muddatga bo'lsa-da, barpo etishga erishadi. Bilga xoqon 734 yil zaharlab o'ldirilgan.

Bo'g'u qag'an. Bög (u) qag'an bangaruancha ayıdмыш, apa tarqang'aru ichra sab ыdмыш: билгә Tonyuquq anyыg' ol, öz olanglar. Bug'u xoqon menga shunday deb aytiribdi. Apatarxan (bosh qo'mondan) ga maxfiy gap yuboribdi: bilga To'nyuquq hushyor, o'zi biladi [To'nyuquq, 34]. Bo'g'u xoqon, Qapag'an xoqonning katta o'g'li bo'lgan. Mogilyon va Kulteginga yaqin qarindosh. U xoqonlikning shimolida joylashgan kichik xoqonlikni boshqargan. To'nyuquq bitiktoshida tilga olinadi. 716 yilda Sharqiy turk xoqonligining xoqoni bo'lgan Qapag'an xonning kutilmaganda vafoti O'rdani sarosimaga soladi. Aslida, jami kuchlar Kulteginga tegishli bo'lsa ham, Qapag'an xoqon ulushini o'zining katta o'g'li Bo'g'u xoqonga topshiradi. 699 yili Bo'g'uni kichik xoqon deb e'lon qilishadi va otasidan qolgan qirq ming harbiyga ega bo'ladi. 716 yilda u to'liq xoqonlikka xoqon deb belgilanadi.

Barsbag (bars bek). Bars bæg әrti, qag'an at bunta biz bәrtimiz, singlim qunchuyug' bәrtimiz, ozi yangылыты, qag'аны olti, bodуны kung qul boltы. Bars bek edi. Xoqon deb biz unvon berdik. Singlim xoqonzodani berdik. O'zi adashdi, xoqoni o'ldi, xalqi cho'ri, qul bo'ldi [Kultegin, 20].

Bumin qag'an. Bumin (Xitoy tarixiy manbalarida «Tumin») -Turk xoqonligi asoschisi va uning birinchi hukmdori (552-553); Jujan xonligiga tobe ash urug'i (ma'dan qazish, temir eritish va undan qurol-yarog'lar yasash bilan shug'ullangan) ning sardori. Bumin «elxon» unvoni bilan ilk bor 551 yil Turk xoqonligi taxtiga o'tiradi.

Elbilga. Qadimgi mo'g'ulchada Elbilga Xatan yoki Ilbilga Qatun deb nomlangan. VIII asrning Ko'kturk xoqonligi xoqoni Qutlug' xoqonning ayoli. Kultegin va Bilga xoqonning onasi.

Istami xoqon. Istami xoqon, Istami (xitoycha Shi-de-mi, yun.-Stemvis, Vizantiyacha-Dizovul yoxud Silzibil, arabcha Sindjibu)-g'arbiy turk xoqonligining asoschisi va birinchi xoqoni (553-76); Bumin xoqonning ukasi. Akasi vafoti (553) dan so'ng turk xoqonligining g'arbga qilgan yurishiga rahbarlik qilgan. Istami xoqon qo'shinining soni 100 ming kishi bo'lgan. Uning unvoni yabg'u-xoqon bo'lgan. Istami xoqon g'arbni zabt etishga jiyani Mug'on xoqonning yabg'usi sifatida yo'l olgan. Istami xoqon qo'shini qattiq qarshilikka uchramagan. 555 yili ular «G'arbiy dengiz» bo'yiga etib borganlar. Firdavsiyning yozishicha: Istami xoqonga tobe' bo'lgan mulklarning chegarasi «Chin» (Xitoy)dan Jayxungacha va Chochning narigi tomonidan «Sirdaryo»gacha cho'zilgan». Shunday qilib, turkiylar bir yarim yil ichida butun Markaziy Qozog'iston, Yettisuv va Xorazmni zabt etganlar. Biroq Istami xoqon yurishi keyin qiyinlashgan. Orol dengizining shimolida unga xuni (xionitlar), var (o'g'ur qavmi) va o'g'ur (ugorlar vengerlar ajdodi) lar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Faqat 558 yili bu qabilalar tor-mor qilingan va turkiylar Volga bo'ylariga chiqqanlar. Istami xoqonga tobe' bo'lishdan voz kechgan var va xun qabilalarning qolgan-qutganlari (20 mingga yaqin kishi) qochib, keyinchalik yagona xalq-avarlarga birlashgan.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR :

1 Кызласов Л.Р. О значении термина «балбал» древнетюркских надписей// Тюркологический сборник. М., 1966. –С. 43.

1. Умаров Э.А. Новые данные об Орхонских надписях. – Ташкент: Фан, 2008. – 30 с.; Умаров Э.А. Урхун ёзуви. – Тошкент: Фан ва таълим полиграф,

2. 2013. – Б.12-14.; Умаров Э.А. Урхун алифбоси қандай тузилган? – Тошкент: Фан ва таълим полиграф, 2013. – 20 б.; Абдушукуров Б.Б. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Навоий университети, 2019. – 130 б

3. Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институтининг кичик босмахонаси, 2004. – 144 б.

4. Раҳмонов Н., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2009. – 224 б.

